

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



**TURON UNIVERSITETI NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASASINING  
ODOB-AXLOQ KODEKSI**

QARSHI –2023

## **Turon universitetining namunaviy odob-axloq kodeksi**

### **1-bob. Umumiy qoidalari**

#### **1-modda. Ushbu kodeks bilan tartibga solinadigan munosabatlar**

Ushbu Kodeks O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, Universitet professor-o‘qituvchi va boshqa xodimlari (texnik, yordamchi), talaba-magistrantlari, doktorantlari (keyingi o‘rinlarda-xodim, talaba va doktorant) kasbiy odob-axloqning tamoyillari, normalari, ta’lim jarayoni va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga soladi.

#### **2-modda. Odob-axloq kodeksining maqsad va vazifalari**

##### **Odob-axloq kodeksining maqsadlari;**

Xodim, talaba va doktorantlar madaniyatining milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish;

ta’lim muassasalariga oid odob-axloqning tushunchasini shakllantirish va takomillashtirib borish;

xodim talaba va doktorantlarni Universitet va uning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash;

Universitetda kiyinish, tashqi ko‘rinish va xulq-atvorga bo‘lgan talablarni o‘rgatishdan iboratdir.

Odob-axloq kodeksining vazifalari quyidagilardan iborat:

Universitet xodim, talaba va doktorantlari o‘rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;

Universitetda zo‘ravonlik shafqatsizlik va hayosizlik kabi nomaqbul hatti-harakatlar bilan shug‘ullanish va (yoki) targ‘ibot-tashviqot qilinishini oldini olish;

turli salbiy illatlar va milliy mentalitetimizda yot bo‘lgan g‘oya va qarashlar, ekstremizm, separatizm, fundamentalizm va “ommaviy madaniyat” ning ta’sir hamda xurujlarini targ‘ibot-tashviqot qilinishiga oid harakatlarni oldini olish;

mazkur nomaqbul xatti-harakatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish;

xodim, talaba va doktorantlarda yuksak huquqiy ongni shakllantirish orqali O‘zbekiston Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjalari qat’iy rioya qilish ruhida tarbiyalash;

xodim, talaba va doktorantlarda fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini doimo hurmat qilish va himoya qilish ko'nikmasini shakllantirish va yuksaltirish;

xodim, talaba va doktorantlarda vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish va ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash;

Universitetda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish va rivojlantirish;

xodim, talaba va doktorantlarda tashqi ko'rinishga oid madaniyatni shakllantirish uchun sharoitlar yaratish;

Universitetning davlat va jamiyat hayotidagi hamda ta'lim tizimidagi nufuzi, obro'-e'tiborini asrab-avaylash va yanada oshirish.

### **3-modda. Kodeksning amal qilish doirasi**

Ushbu Kodeks Universitetning barcha xodim, talaba va doktorantlariga nisbatan tatbiq etiladi.

### **2-bob. Kodeksning prinsiplari**

#### **4- modda. Universitet xodim, talaba va xulq-atvorining asosiy prinsiplari**

Mazkur Kodeks qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, vatanparvarlik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik, adolat, halollik va xolislik, samaradorlik, tejamkorlik prinsiplariga asoslanadi.

#### **5-modda. Qonuniylik prinsipi**

Universitet xodim, talaba va doktorantlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so'zsiz rioya qiladilar hamda o'z xizmat va o'qish majburiyatlarini lavozim yoriqnomalari, mehnat shartnomalari, ushbu Kodeks qoidalari, Universitet ichki tartib qoidalari hamda ta'limga oid boshqa meyoriy hujjatlarga muvofiq bajaradilar.

#### **6-modda. Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarning ustuvorligi prinsipi**

Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari Universitetning oliy qadriyati bo'lib hisoblanadi. Universitet xodim, talabava doktorantlari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo'l qo'yaydilar va bunday buzilishlar ro'y bergan hollarda ularni tiklashga ko'maklashadilar.

#### **7- modda. Vatanparvalik, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik prinsipi**

Universitet xodim, talaba va doktorantlari o'z o'qish va xizmat faoliyatlarini ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, Vatanga sadoqat, xizmat va o'qish burchiga sodiqlik asosida jamiyatning Universitetga bo'lgan talabi va ishonchini ifodalagan holda

amalga oshiradilar. Xodim, talaba va doktorantlar o‘z o‘qish va xizmat burchlarini o‘zaro xayrixohlik, o‘z manfaatlari va mafkuraviy qarashlaridan qat’iy nazar lozim darajada bajaradilar.

#### **8- modda. Adolat, halollik va xolislik prinsipi**

Universitet xodim, talaba va doktorantlari o‘z xizmat va o‘qish faoliyatlarini amalga oshirishda adolatli, halol va xolis bo‘lishlari hamda Universitetga, unga tegishli bo‘lgan saytlar va ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilgan barcha yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ushbu prinsip talablari asosida munosabatda bo‘lishlari shart

#### **9- modda. Samaradorlik va tejamkorlik prinsipi**

Universitet xodim, talaba va doktorantlari o‘z faoliyatamaradorligini innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va boshqa yo‘llar bilan doimiy ravishda oshirib boradilar.

Universitet xodim, talaba va doktorantlari, o‘z navbatida Universitetning mulkiga, o‘zining va boshqa shaxslarning vaqtiga mas’uliyat va ehtiyyotkorlik bilan yondashadilar.

#### **3-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish**

#### **10- modda. Korrupsiyaning har qanday shakl va ko‘rinishini qabul qilmaslik**

Universitet xodim, talaba va doktorantlari korrupsiyaning har qanday shakli va ko‘rinishini qabul qilmaydilar va uning biror-bir tarzda namoyon bo‘lishiga qarshi hamjihatlikda qonuniy choralarni ko‘radilar.

Xodim, talaba va doktorantlar korrupsiyaga qarshi kurashishlari va uning profilaktikasiga faol ko‘maklashishlari, shuningdek, Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati va boshqa korrupsiyaga qarshi kurashishga oid hujjatlar talablarini so‘zsiz bajarishlari, o‘z faoliyatlarini oshkora va adolatli amalga oshirishlari, yuqori axloqiy qadriyatlar va prinsiplar va prinsiplarga sodiq qolgan holda qonun ustuvorligiga qat’iy rioya etishlari shart.

#### **4- bob. Xodim, talaba va doktorantlar yurish-turish va rasmiy muloqotiga oid talablar**

#### **11-modda. Universitetda kiyinish va tashqi ko‘rinishga oid qoidalar**

Universitet xodim, talaba va doktorantlari o‘z o‘qish va kasbiga mos bo‘lgan zamonaviy kiyimda bo‘lishlari lozim.

Universitet xodim, talaba va doktoranti bo‘lgan xotin-qizlar tanani shaffof ko‘rsatib turadigan, yelka, ko‘krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan hamda haddan ziyod tor kiyimda, shuningdek, qulochchinlar, qulog va barmoqlardan tashqari tananing turli qismlariga zirak yoki metall buyumlar bilan,

tanasining ko‘rinib turadigan qismida pirsing yoki tatuirovkada Universitetga kelishlari mumkin emas.

Talaba-qizlar Universitetga och rangli va yorqin rangda bo‘lmagan bluzkalarda, tizzani yopib turadigan yubka, klassik turdagи shimlar yoki odmi kostyum va to‘q rangdagi poyabzalda kelishlari lozim, shuningdek, o‘zлari bilan zaruriy o‘quv vositalarini olib kelishlari shart.

Universitet xodim, talabasi va doktoranti bo‘lgan erkaklar oq, havorang, och jigar rang yoki och kulrang ko‘ylakda, klassik uslubdagi shim yoki odmi kostyum, va to‘q rangdagi poyabzalda, soqoli talab darajasida olingan va soch tartibga solingan holda kelishlari lozim. Bunda, talabalar o‘zлari bilan zaruriy o‘quv vositalarini olib kelishlari shart.

Xodim, talaba va doktorantlarga professionallikka va tanlagan kasbiga xos tarzda kiyinish targ‘ib qilinadi.

Xodim, talaba va doktorantlarning auditoriya va xizmat xonalarida ustki kiyim (plash, palto, kurtka hamda bosh kiyim kabilar)da yurishlari taqiqlanadi.

Xodim, talaba va doktorantlarningtashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza bo‘lishi lozim.

Shuningdek, xodim, talaba va doktorantlarning Universitetga kelishi ruxsat etilgan formasiga turli din va konfessiyalar hamda milliylikka zid submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi elementlarni (kipa, kashaya, xoch, hijob, yuzning asosiy qismini to‘sib qo‘yuvchi jag‘ ostidan o‘ralgan ro‘mol va boshqalar)qo‘shishga yo‘l qo‘ymaydi.

Dam olish kunlari (shanba va yakshanba) erkin ust-boshda (tanani shaffof ko‘rsatib turadigan, yelka, ko‘krak va qorin, tizzadan yuqori qismlari ochiq qoladigan, turli din va konfessiyalar hamda submadaniyatlarga mansublikni aks ettiruvchi kiyimda kelish bundan mustasno) kelishga ruxsat etiladi (rasmiy tadbirdarda ishtirok etishga jalb qilinganlar belgilangan kiyinish tartibiga amal qilgan holda keladi).

## **12- modda. Majlis va yig‘inlarda ishtirok etish**

Universitet xodim, talabasi va doktorantlari turli tadbirdar (majlislar, tantanali yig‘ilishlar, uchrashuvlar, bayramlar)dagi ishtiroki jarayonida so‘zga chiquvchilarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari, tadbir davomida tinchlik va osoyishtalikni saqlashlari shart bo‘lib, raislik qiluvchi va moderatorning ruxsatisiz luqma tashlash va so‘zga chiqish mumkin emas. Zarurat tug‘ilganda nutqlar o‘rtasida majlislar zalidan chiqib-kirish mumkin.

## **13- modda. Binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish**

Binolarga kirish va chiqish joylarida shuningdek, yo‘laklarda talabalar xodimlarni, erkaklar va ayollarni, yoshlar esa kattalarni o‘zlaridan oldin o‘tkazib yuborishlari lozim.

Binoga kirayotgan Universitet xodim, talabasi va doktorantlari binolarga kirib-chiqishni nazorat qilish uchun tayinlangan mas’ul shaxs yoki navbatchiga o‘z shaxsini tasdiqlovchi hujjatni (ruxsatnoma, talabalik guvohnomasi, pasport va h.k.) ochiq holda ko‘rsatishlari yoki maxsus berilgan ID-karta va feyskontrol orqali turneketlardan o‘tishlari shart.

Xodim, talaba va doktorantlar Universitet hududida yo‘lning o‘ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo‘lak va xollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerak. Bir-birlariga duch kelganda salomlashishlari, bunda: talabalar xodimlarga, yoshlar kattalarga birinchi bo‘lib salom berishlari tavsiya etiladi.

#### **14-modda. Xodim, talaba va doktorantlarning rasmiy muloqot me’yorlari**

Universitet xodim, talabasi va doktorantlari tashkilot va muassasalar, ommaviy axborot vositalari hamda fuqarolar bilan o‘zaro munosabatga kirishganda qo‘yidagi rasmiy muloqot me’yor va qoidalariga amal qilishlari kerak:

o‘z harakatlarini Universitet manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirish, uning imidjini saqlash va oshirish, Universitet uning xodimlari, talabalari va doktorantlari nomi va manfaatlariga ziyon yetkazadigan harakatlarni amalga oshirmsaslik, shuningdek, ular bilan muloqot qilinganda hamda ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi yozishmalarida o‘zlarining namunali xulq-atvori bilan Universitet haqida yuksak ijobiy taassurot uyg‘otish;

Universitet, uning xodim, talaba va doktorantlari haqida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan yoki noto‘g‘ri talqin qilingan, noto‘g‘ri talqin qilish uchun imkon beradigan ma’lumotlarni tarqatmaslik, bunday ma’lumotlar tarqalishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, jamoat oldida va ijtimoiy tarmoqlarda bu mavzuda chiqishlar qilmaslik;

xodim, talaba va doktorantlarningroziligesiz ularning shaxsiy hayotiga oid ma’lumotlarni oshkor qilmaslik;

xodim, talaba va doktorantlar haqida ularning kasbiy va o‘quv faoliyatiga oid bo‘limgan ma’lumotlarni aniqlashtirmaslik;

xizmat axborotlarini taqdim etish qoidalariga amal qilish;

so‘ralgan axborotni yetarlilik (haddan tashqari qisqa shu bilan birga o‘ta keragidan ortiq) va ishonchlilik (qayta tekshirishni talab qilmaydigan) talablariga muvofiq holda taqdim etish;

o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida olingan ma’lumotlardan maqsadga muvofiq bo‘limgan tarzda foydalanmaslik, shuningdek, ularni Universitet rahbariyati ruxsatisiz tarqatmaslik;

xodim, talaba va doktorantlarning ta’lim jarayonidagi faoliyati va kasbiy harakatlarini asossiz tanqid qilmaslik, jamoat oldida chiqishlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va turli xil ijtimoiy tarmoqlarda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va Universitet faoliyati, uning xodimlari harakatlarini haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, asossiz va aniq dalillarga asoslanmagan holda muhokama qilmaslik va ular haqida baho berib, fikr-mulohazalar bildirmaslik.

### **15- modda. Ish va o‘qish vaqtiga rioya qilish**

Xodim, talaba va doktorantlar dars mashhulotlari va ishga o‘z vaqtida kelishlari, mehnat hamda o‘qish intizomiga rioya qilishlari shart.

### **16- modda. Universitetda g‘ayri axloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo‘l qo‘ylmasligi**

Talaba va doktorantning o‘qishiga, xodimning esa Universitetda mehnat faoliyatini yuritishga to‘sqinlik qiladigan qo‘yidagi g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakatlarni sodir etishi qat’iyan taqiqlanadi:

har qanday huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish, jumladan, tuhmat qilish, haqoratlash;

giyohvand moddalar, psixotrop, sintetik vositalar va ularning analoglari, alkogol va tamaki mahsulotlari, vayp, chilim, elektron sigaretlar va sarxush qiluvchi boshqa vosita hamda moddalarni iste’mol qilish va tarqatish;

tinchlik yoki osoyishtalikka qarshi tajovuz qilish, janjallahish, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlar o‘ynash;

Universitetga moddiy va uning ishchanlik obro‘siga salbiy ta’sir etuvchi ma’naviy zarar yetkazish;

xodim, talaba va doktorantlarga jismoniy, ma’naviy yoki moddiy zarar yetkazish;

xodim, talaba, doktorant yoki boshqa shaxslarning mulkiga, moddiy qimmatliklariga egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish uchun turli ko‘rinishda egallab olish, basharti, ushbu holat tegishli asoslar bilan o‘z tasdig‘ini topsa;

Universitet atrof-muhitini har qanday ko‘rinishda ifloslantirish;

Universitet binolari va hovlisida, shuningdek, Universitet binolariga tutashgan hududda spirtli ichimliklar ichish va tamaki yoxud boshqa turdagи mahsulotlarni chekish hamda mast holda bo‘lish, tashqi ko‘rinishga va ushbu Kodeksda belgilangan qoidalarga zid ravishda soch-soqoli o‘sgan, to‘zg‘igan, sochlarini noodatiy bir yoki bir necha ranglarga bo‘yalgan va kiyinish talablariga rioya qilmagan holda kelish;

Universitetga tegishli kompyuterlarda Universitetga tegishli bo‘lmagan ma’lumotlarni, shuningdek, turli kinofilmlar, noqonuniy ma’lumotlar, behayo surat va filmlar, milliy, irqiy, etnik, diniy, adovatni targ‘ib qiluvchi, ekstremistik,

separatistik va fundamentalistik kayfiyatdagи har qanday materiallarni tayyorlash, ko‘rish, saqlash, tarqatish va ularga da’vat etish;

o‘quv mashg‘ulotlari va ishga hamda xodim va talabalarning osoyishtaligiga xalaqit beradigan xatti-harakatlar sodir etish (radiouzatgich, televizor, multimedia va ovoz chiqaruvchi moslamalardan maqsadsiz foydalanish);

xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan soxta ma’lumot va hujjatlarni taqdim etish;

xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan Universitet hujjatlariga qasddan o‘zgartirish kiritish yoki ularni yo‘q qilish (bo‘yash, o‘chirish, qo‘sishimcha yozuvlar kiritish yoki zarar yetkazish);

o‘quv jarayoniga oid qoida va talablar buzilishi bilan bog‘liq holatlar akademik halollikka oid ichki me’yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi;

umumbashariy va milliy qadriyatlarga xos bo‘lmagan yoki Universitet, uning xodimlari nufuziga putur yetkazadigan materiallarni internet tarmog‘i va boshqa ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish yoki ulardan turli nomuvofiq maqsadlarga foydalanish.

Xodimlar, talabalar va doktorantlar tomonidan oliy ta’lim muassasasining ishchanlik obro’si, qadr-qimmati va nufuzini tushiradigan, ta’lim jarayonining ma’naviy buzilishiga olib keladigan agressiya, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kansitadigan, zo‘rlash va vandalizm, millatlararo nizo qo‘zg‘atadigan, ta’qiqlangan diniy yo‘nalishdagi, terrorizm, ekstremizm, va fundamentalizm, shuningdek, behayo va ishqiy sahnalarni namoyon qiladigan fotosuratlar, video va audioyozuvlardan foydalanish va ularning tarqatilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shuningdek, davlat hokimiysi va boshqaruvi organlari, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar, shuningdek Universitet faoliyati, uning xodimlari hamda talabalari sha’ni va qadr qimmati hamda ishchanlik obro’siga salbiy ta’sir qiluvchi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan, asossiz va tekshirilgan dalillarga asoslanmagan turli xil ko‘rinishdagi ma’lumot, fikr, mulohaza va munosabatlarni internet, ijtimoiy tarmoqlar, shuningdek, boshqa ommaviy axborot manbalarida, tarqatuvchilarda, tashuvchilarda paydo bo‘lishi (oshkor etilishi) mazkur talaba doktorantning o‘qishiga, xodimning esa Universitetda mehnat faoliyatini yuritishiga to‘sinqilik qiladigan g‘ayriaxloqiy va nojo‘ya xatti-harakat hisoblanadi.

## **5-bob. Universitet rahbariyatining odob-axloqqa oid majburiyatlari va kasbiy faoliyatda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslikka oid tartiblar**

### **17- modda. Rahbarning majburiyatlari**

Rahbariyat hamda tarkibiy bo‘linma rahbarlari (keyingi o‘rinlarda-rahbar) o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarga nisbatan yuqori professionallik, xolislik, soflik va adolatda o‘rnak bo‘lishi, Universitet yoxud uning tarkibiy bo‘linmasida ijobiy, ma’naviy-psixologik muhit shakllanishiga ko‘maklashishi lozim. Rahbar bo‘ysunuvchi xodimlardan ularning xizmat vazifalari doirasidan chiquvchi topshiriqlarni bajarishini talab qilmasligi, shuningdek, qonunga xilof xattiharakatlarni sodir etishga undamasligi kerak.

Rahbar o‘z faoliyatida:

kadrlarni qarindoshlik, hamshaharlik yoki shaxsiy sadoqat belgilari bo‘yicha tanlash va joy-joyiga qo‘yish va mehnat munosabatlarida kamsitish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi;

guruhbozlik, mahalliychilik, favoritizmga, shuningdek, o‘z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida boshqa salbiy omillarning kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymasligi;

qo‘pollik qilmasligi, odamlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatmasligi;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va ularni tartibga solish yuzasidan o‘z vaqtida chora-tadbirlar ko‘rish ;

korrupsiyaning oldini olish choralarini ko‘rish;

xodimlarning kasbiy va intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun qulay ish joyi, zamonaviy kompyuterlar, internet tarmog‘i, kutubxona fondi va axborot resurslaridan erkin foydalanishlari, hordiq chiqarishlari, dam olishlari, jismonan chiniqishlari uchun barcha sharoitlarni ichki imkoniyatlardan kelib chiqib yaratib berish;

xodimlar faoliyatini samarali tashkil etish, o‘ziga ishonib topshirilgan mulkka va moliyaviy mablag‘larga ehtiyyotkorlik va tejamkorlik bilan munosabatda bo‘lishi shart .

Rahbar qo‘l ostidagi xodimlarning mehnat intizomiga riosa qilishlarini talab qilish va uni ta’minlashga mas’uldir.

## **6-bob. Xodim, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlariiga oid talablar**

### **18-modda. Xodim, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlari**

Xodim, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlari milliy qadriyat va an’analar, yagona jamoaviy muhit, o‘zaro hurmat va e’tibor, do‘stlik, hamjihatlik, halollik vaadolat tamoyillariga asoslanishi lozim.

Xodim, talaba va doktorantlarning o‘zaro munosabatlarida inson qadr-qimmatiga hurmatsizlik, shaxsiyatni kamsitish, o‘zganining intellektual mulkini o‘zlashtirib olish, qo‘pollik, behayo so‘zlar ishlatish, mushtlashish qat’iyan man etiladi.

Pedagog xodimlar tomonidan talabalarga nisbatan o‘quv va tarbiya jarayonidagi yuqori talabchanlik ularning shaxsini hurmat qilish bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

### **19-modda. Pedagog xodim va talabalarning auditoriyadagi va undan tashqaridagi o‘zaro munosabatlari**

Pedagog xodim auditoriyaga kirganida, barcha talabalar o‘rinlaridan turib hurmatlarini bildirgan holda kutib olishlari, so‘ngra pedagog xodim salomlashib, o‘tirishga ruxsat bergach, o‘z joylarini egallashlari kerak. Pedagog xodim darsini tugatib, auditoriyadan chiqib ketayotganda ham talabalar o‘rinlaridan turib, kuzatib qo‘yishlari lozim.

Pedagog xodimlar o‘quv jarayoni va boshqa holatlarda ham talabalarning shaxsini hurmat qilish, ular bilan munosabatda ochiqlik va xayrixohlik tamoyillariga amal qilish, talabalarga ta’lim berish jarayonida o‘z vazifalarini beg‘araz amalga oshirishi, talabaga munosabatda ularni kamsitish, qo‘pol so‘z ishlatish, o‘zini yuqori tutish va tanish- bilishchilik kabi yondashuv shakllarini mutlaqo qo‘llamaslik, ularga nisbatan doimo haqqoniy munosabatda va xolis bo‘lishlari shart.

Pedagog xodimlar talabalarga ularni qiziqtirgan fan yoki o‘quv kursiga oid masalalar yuzasidan dars jarayonidan tashqari vaqlarda bergen savollariga ham axloq me’yorlariga amal qilgan holda javob qaytarishlari va ularni fanga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini oshirish choralarini ko‘rishlari zarur.

### **20- modda. Akademik ta’qib va tazyiqqa yo‘l qo‘yilmasligi.**

Universitet hayotida rahbariyat yoki pedagog xodim tomonidan talabalarni ularning roziligesiz muayyan ishlarga jalb etganlik, haq to‘lamasdan ularning mehnat kuchidan foydalanish (Universitet va unga biriktirilgan boshqa hududda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan xavfsizlik standartlariga qat’iy rioya qilingan holda ixtiyoriy shanbalik va

boshqa turdag'i tadbirlar tashkil etilgan hollar bundan mustasno) maqsadida ularga murojaat etilganida, talabalar tomonidan bunday so'rovga rad javobining berilishi pedagog xodim tomonidan kelgusida ularga dars mashg'ulotida past baho qo'yish yoki boshqa turdag'i tazyiq va ta'qib (akademik harassment) qilish bilan bog'liq munosabat ko'rsatilishiga imkon bermaydi va bunday ta'qib qattiq qoralanadi.

## **21- modda. Uyali aloqa vositalaridan foydalanish**

Dars mashg'ulotlari vaqtida uyali aloqa vositalaridan foydalanish barcha uchun qat'iyan taqiqlanadi. Uyali aloqa vositalaridan foydalanishga zarur va uzrli holatlarda pedagog xodimning ruxsat bilangina ruxsat etilishi mumkin.

## **22- modda. Dars mashg'ulotida ishtirok etish.**

Talabalarning darsga kech qolib kelishlariga yo'l qo'yilmaydi. Lekin uzrli sababga ko'ra darsga kech qolgan talaba uzr so'rav, pedagog xodimning ijozati bilan auditoriyaga kirib o'z joyini egallashi mumkin.

Pedagog xodim dars mashg'ulotlariga o'zining nojoya harakatlari bilan xalaqit berayotgan talabani yuzaga kelgan vaziyat haqida fakultet dekanini ( u o'z o'rnida bo'lma ganda dekan o'rinosi yoki tyutorni) xabardor qilgan holda darsdan chetlatishi mumkin.

## **23- modda. Dars mashg'ulotidan tashqari vaqtda muloqot qilish**

Talaba uchun pedagog xodim bilan dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtda muloqot qilish zarurati bo'lsa, u holda muloqot:

maslahat soatlari, mustaqil ish yoki o'zaro kelishuv bo'yicha belgilangan vaqtda amalga oshirilishi mumkin;

talaba o'zi muloqot qilmoqchi bo'lgan pedagog xodimning lavozimi, ismi, otasining ismi va familiyasini bilish maqsadga muvofiq.

Asoslangan jiddiy sabablar (qo'pollik, tamagirlilik, dars sifatining pastligi, pedagog xodimning aybi bilan mashg'ulotlar o'tkazilishidagi muntazam uzilish hollarini isbotlovchi dalillar va b) hamda guruh (kurs) ning yakdil fikri mavjud bo'lgan holatlarda talabalar pedagog xodimni almashtirish haqida iltimos bilan fakultet dekaniga murojaat qilishlari mumkin.

## **24- modda. Subordinatsiya**

Rahbar xodimlarga xodim, talaba va doktorantlar tomonidan biron-bir masala yuzasidan vijudga kelgan holatlar bo'yicha murojaat qilinishi muayyan tartib (subordinatsiya tamoyili), ya'ni munosabat bildirishdagi rahbariyat bog'inaligiga bosqichma-bosqich chiqish asosida tashkil etiladi. Universitet rektoriga talabalarning to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish holatlari bundan mustasno.

## **25- modda. Tashabbus va faollik**

Xodim, talaba va doktorantlarning Universitetda ma'naviy-axloqiy muhitni yanada yaxshilash, ta'lim sifatini oshirib, innovatsion g'oyalardan samarali

foydanish, turli xil manfaatli tadbirlar uyushtirish bo'yicha tashabbus va g'oyalari rag'batlantiriladi.

## **7-bob. Xodim, talaba va doktorantlarning odob-axloqqa oid majburiyatları.**

### **26-modda. Odob- axloqqa oid majburiyatlar**

Universitetga o'qishga, ishga kirayotgan shaxslar mazkur Kodeks bilan yozma ravishda (imzo chektirib) tanishtiriladilar.

Xodim, talaba va doktorantlar:

qonun hujjatlari va mazkur Kodeks talablariga rioya etishga;

doimo yuksaklikka intilish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oljanob fazilatlarni chuqur anglashga;

dob-axloqqa oid milliy an'analarimiz, urf-odat va qadriyatlarimizni hurmat qilishga;

o'z ustilarida doimiy ravishda ishslash va qabul qilinayotgan qonun hujjatlarini muntazam ravishda o'rganib borishga;

o'z vazifalarini vijdonan, professional darajada amalga oshirishga;

Universitet obro'-e'tibori va nufuziga dog' tushiradigan har qanday harakatlarni sodir etishdan o'zini tiyishga;

Universitet to'g'risidagi axboratlardan uning manfaatlari va ishchanlik obro'siga ziyon yetkazish maqsadida foydalanmaslikka;

Universitet mulkiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish (ko'char va ko'chmas mulk, o'simlik va hayvonot dunyosiga va b), shu jumladan, xizmat vazifasini bajarish uchun berilgan moddiy texnika vositalaridan to'g'ri va tejamkorona foydalanishga;

elektr energiyasi va suvni tejamkorona ishlatishtga;

biron-bir noxush voqeа yoki hodisa ro'y bersa, u haqda zudlik bilan Universitet rahbariyatiga xabar berishga;

belgilangan cheklolar va taqiqlarga rioya qilish, o'z vazifalarini og'ishmay bajarishga, xodim, talaba va doktorantlarning shaxsiy va oilaviy muammolarini muhokama qilmaslikka, hech bir shaxs haqida jinsi, irqi, millati, tili, diniy e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va lavozimi haqida hamda boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar noto'g'ri fikr yuritmaslikka va uni kamsitmaslikka;

xodim, talaba va doktorantlar, shuningdek, boshqa shaxslar haqida turli ig'vo, fitna, g'iybat va bo'htonlar uyushtirmaslikka va tarqatmaslikka;

Universitet ishchanlik obro'si yoki nufuziga putir yetkazadigan nizoli vaziyatlarga yo'l qo'ymaslikka;

xodim, talaba va doktorantning mehnat va o‘quv jarayonidagi sa‘y harakatlariga qasddan ziyon yetkazmaslikka;

xotin-qizlarning sha’ni va qadr- qimmatini kamsitadigan harakatlar sodir etmaslikka, shilqimlik qilmaslikka, o‘zaro munosabatlarda umume’tirof etilgan axloq qoidalarini mensimaslikda ifodalanuvchi behayo so‘zlardan foydalanmaslikka;

davlat organlari va mansabdor shaxslarning, shuningdek, Universitet rahbariyatining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan (bergan) qarorlarini (topshiriqlarini) o‘z vaqtida va sifatli bajarishga;

shaxsiy foydasi hamda o‘zgalar manfaatini ko‘zlab o‘z mavqeini suiiste’mol qilmaslikka;

haqiqatni gapirishga, rahbarlar va boshqa xodimlarni chalg‘itmaslikka;

mutasaddi xodimlarning ruxsatisiz turli reklama vositalarini o‘rnatmaslikka;

kasbiy faoliyati davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan, ularning oshkor etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beriladigan axborotning saqlanishi va maxfiyligini ta’minalash yuzasidan barcha choralarни ko‘rishga;

sog‘lom turmush tarzini yuritish va atrofdagilarning sog‘lig‘ini saqlashga g‘amxo‘rlik qilish, estetik va ekologik madaniyatning oshirishga ko‘maklashishga;

tanqidiy mulohazalarni bildirishga va obektiv qaror qabul qilishga, o‘z xato va kamchiliklarini anglash va bartaraf etishga;

moddiy jihatdan yaxshi ta’minalanganligini turli yo‘llar bilan ataylab ko‘z-ko‘z qilmaslikka;

Axborot- resurs markazi xodimlari bilan xushmuomala bo‘lishga, kitoblar va jihozlarga ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga, u yerda uyali aloqa vositalarini o‘chirib qo‘yish yoki ovozsiz rejimda qo‘yishga, baland ovozda so‘zlashmaslik va atrofdagilarga xalaqit bermaslikka oziq-ovqat iste’mol qilmaslik, qog‘oz, saqich va boshqa chiqindilarni qoldirib ketmaslikka, kitoblarni olish va topshirish tartib-qoidalariga rioya qilishga;

sport majmuasiga sport kiyimi va poyabzalida kirishga;

sport inventarlariga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo‘lishga;

mashg‘ulotlardan keyin sport inventarlarini belgilangan joylarga qayta topshirishga;

sport majmuasining belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishga;

Universitet auditoriyalari, binolari va binolarga tutashgan hududda tozalikni saqlashga;

hududni ifoslantirmaslik, chiqindilarni joylarga qo‘yilgan maxsus qutilarga tashlashga;

shaxsiy avtomobilni taqiqlangan joyda qoldirmaslik, yo‘l harakati qoidalarini buzmaslik va mensimaslikka (beparvo bo‘lish), shuningdek, transport vositalaridan foydalanishda xavf-xatar yaratmaslikka;

ish (o‘qish)dan tashqari vaqtida umumiy qabul qilingan odob-axloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti- harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikka majbur.

## **27- modda. Odob-axloqqa oid qo‘shimcha talablar.**

### **a) talabalar**

nutq madaniyatini doimiy takomillashtirib borishga;

talabalarning o‘z-o‘zini boshqarish tizimini faol qo‘llab-quvvatlash va mustahkamlash, ijodiy faoliyatni rivojlantirish va jamoaviy madaniyatni o‘stirishga;

pedagog xodim bilan boshqa talabalarning bahosini muhokama qilmaslikka;

yozma ishlarni himoya qilish va reyting nazoratiga doir tartib- qoidani bajarish vaqtida chetdan yordam olmaslik, o‘zgalarga yordam ko‘rsatmaslikka;

boshqa shaxslar tomonidan tayyorlangan topshiriqlar yoki yozma ishlarni o‘z nomidan topshirmaslikka;

mashg‘ulotlarni sababsiz, o‘tkazib yubormaslikka va darslarga sababsiz kechikib kelmaslikka;

o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida Universitet hududida behuda yurmaslikka;

dars mashg‘ulotlari o‘tayotgan vaqtida fakultet dekanlari, magistratura bo‘lini boshlig‘ining ruxsatisiz Universitet hududidan ketib qolmaslikka;

oliy ta`lim muassasasi xodimlari va o‘qituvchilariga qo‘pollik qilmaslikka, ular bilan tortishmaslikka, agarda ular nohaq bo‘lsa tegishli shaxslarga xabar berishga, o‘qituvchilarning shaxsiy hayotiga oid noo‘rin savollar bilan murojaat qilmaslikka, ularga nisbatan adovat saqlamaslikka;

xodim, talaba yoki doktorant bilan nizoli vaziyat yuzaga kelganda o‘z hissiyotlarini jilovlashga va mazkur vaziyatni ko‘rib chiqish bo‘yicha tegishli bo‘linma va xodimlarga (tyutor, dekan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti, Yoshlar bilan ishslash, ma`naviyat va ma`rifat bo‘lini, Talabalar Kengashi) murojaat qilishga;

o‘quv jarayonida faol, e`tiborli bo‘lishga va pedagog xodimning ko‘rsatmalariga qat`iy rioya qilishga;

dars vaqtida gaplashmaslik hamda dars mashg‘ulotiga taalluqli bo‘lmagan ishlar bilan shug‘ullanmaslikka;

jihozlarga ehtiyojkoronamunosabatdabo‘lish, stolvastullargayozmaslikka;

qog‘oz, saqich va boshqa keraksiz narsalarni auditoriyada qoldirib ketmaslikka;

mashg‘ulotlar davomida ovqatlanmaslik, saqich chaynamaslikka, shuningdek, shaxsiy kompyuter va boshqa kommunikatsiya vositalaridan faqat pedagog xodim ruxsati bilan foydalanishga;

pedagogxodimgamashg‘ulotlarvaqtidasavolyokiiltimosbilanqo‘lko‘targanhol davaruxsatberilganidanso‘ngmurojaatqilishga;

umumiyoqvatlanishjoylaridataomlargabuyurtmaberishvaolishdanavbattartibi gahamda belgilanganqoidalargarioyaqilishga;

Talabalar turar joyi ichki tartibqoidasigarioyaqilishga;

Jamoat xavfsizlik manfaatlaridan kelib chiqib, imkon darajasida Universitetgajamoat transportida kelishga;

**b) xodimlar:**

o‘z xizmat joyidagi tartib intizomga va oliy ta`lim muassasasi ichki tartib qoidalariga rioya qilishga;

ta`tildan oldin yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda o‘z xizmat joyini talabga javob beradigan holatda qoldirishga, o‘z zimmasidagi orgtexnika vositalari va boshqa materiallarni, o‘ziga topshirilgan, lekin hali yakunlanmagan vazifalarni boshqa shaxsga topshirmaslikka;

telefon orqali muloqat qilishda muomala madaniyati va axboroti taqdim etish qoidasiga rioya qilishga ( jumladan, suhbatni eng avvalo rasmiy tarzda salomlashishdan boshlab, so‘ng o‘z xizmat muassasasi, lavozimi hamda familyasi, ismi, sharifini aytib, maqsadga o‘tish lozim, taqdim etilayotgan axborot maksimal qisqa, lo‘nda va aniq bo‘lishi kerak, so‘ralayotgan ma`lumot suxbat jarayonida izlanishi tufayli telefon tarmog‘ini band qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, zarurat bo‘lsa, qayta qo‘ng‘iroqni amalga oshirish mumkin);

yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga;

yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo‘lgan ekstremistik ta`sirlardan, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan ogoh etib borishga;

ta`lim oluvchilarni ma`naviy axloqiy tarbiyalashda va ma`rifiy ishlarning samarali shakl hamda uslublarini ishlab chiqishga ko‘maklashishga;

o‘z xizmat vazifalarini vijdonan bajarishga shubha tug‘diradigan xattiharakatlarni qilmaslikka, talabalar bilan o‘z hamkasblarini kasbiy va shaxsiy kamchiliklarini muhokama qilmaslikka;

dars mashg‘ulotlariga kechikib kelgan yoki boshqa sabablarga ko‘ra talabalarni o‘quv mashg‘ulotlaridan chiqarib yubormaslikka, shuningdek, talabaga oliy ta`lim muassasasi talabalar safidan chetlashtirish (kursdan- kursga qoldirish) yoki talabaning majburan o‘qishdan voz kechishiga undash bilan qo‘rqiitmaslikka,

uning asossiz talabalar safidan chetlashtirilishiga (kursdan-kursga qoldirilishiga) olib kelmaslikka;

ta`lim oluvchilarga nisbatan tazyiq o`tkazish, tegajog`lik va zo`ravonlik qilish kabi sha`n va qadr-qimmatini kansitadigan nojo`ya-xatti harakatlarni sodir etmaslikka;

talabaga nisbatan adovatga bormaslika;

akademik guruhda (kursda) talabalar xulqining umumiy madaniy holati haqida fakultet dekanlariga kerak bo`lgan hollarda ta`sir choralar ko`rish lozimligi yuzasidan yozma ma`lumot taqdim etish kabi talablarni bajaradilar.

## **8-bob. Rag`batlantirish va chora ko`rish tartibi**

### **28-modda. Xodim va talabalarni rag`batlantirish**

O`quv yili davomida mazkur kodeksiga to`la riosa qilgan, Universitetda yuksak ma`naviy-axloqiy muhitning yanada qaror topishi va mustahkamlanishiga o`z hissasini qo`shgan xodim, talaballar, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va boshqa tarkibiy bo`linma rahbarlari tavsiyasiga binoan belgilangan tartibda moddiy yoki ma`naviy rag`batlantirilishlari mumkin.

### **29-modda. Kodeksga riosa qilishning attestatsiya va boshqa jarayonlar uchun ahamiyati**

Xodimlar tomonidan mazkur kodeksiga riosa etilishi attestatsiyalar o`tkazishda, yuqori boshqa lavozimlarga tayinlash (karyeraviy o`sish) uchun kadrlar zaxirasini shakllantirishda hisobga olinadi.

### **30-modda. Kodeks qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik.**

Universitet xodim, talaba va doktoranti tomonidan mazkur kodeks qoidalarining buzilishiuni belgilangan tartibda javobgarlikka tortishga asos bo`lib xizmat qiladi.

### **31-modda. Kodeks va ichki tartib qoidalarining o`zaro munosabati.**

Xodim, talaba va doktorantlar mazkur kodeks qoidalarini buzganida, ularga nisbatan Universitet ichki tartib qoidalarining VII bobida (Mehnat va o`qish intizomini buzganlik uchun javobgarlik) qayd etilgan choralar qo`llaniladi.

## **9-bob. Odob-axloq komissiyasi faoliyatini tashkil etish**

### **32-modda. Odob-axloq komissiyasi**

Mazkur kodeks normalarining xodim, talaba va doktorantlar tomonidan buzilishiga oid masalalar qoida tariqasida, Odob – axloq komissiyasi tomonidan ko`rib chiqilishi mumkin.

Shunindek, Odob-axloqkomissiyasi, qoida tariqasida, oliy ta`lim muassasasi rektorining ko`rsatmasi bo`yicha;

Xizmat tekshiruvi natijasiga ko`ra;

O`z tashabbusi bilan;

Oliy ta`lim muassasasi xodim, talaba va doktorantlaridan, shuningdek, oliy ta`lim muassasasiga aloqa kanallari orqali kelib tushgan axborot asosida ham ushbu turdag'i masalalarini ko`rib chiqishi mumkin.

Odob-axloq komissiyasi kamida 5 kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-axloq komissiyasining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari va uning faoliyatini tashkil etish bilan bog`liq boshqa masalalar oliy ta`lim muassasasi rektori tomonidan tasdiqlangan Odob-axloq komissiyasi to`g`risidagi nizomda belgilanadi.

### **33-modda. Odob-axloq komissiyasi xulosasi**

Odob-axloq kodeksining buzilishi holatlarini Odob-axloq komissiyasi tomonidan ko`rib chiqish natijalari bo`yicha intizomiy yoki boshqa tarzdagi qoida buzilishlarining mavjudligi (mavjud emasligi) to`g`risida xulosa chiqariladi. Ayni vaqtda oliy ta`lim muassasasi rektoriga ko`rib chiqishi uchun qoidabuzar xodim, talaba va doktorantni javobgarlikka tortish to`g`risida taklif kiritiladi. Yo`l qo`yilgan qoida buzilishining xususiyatini hisobga olgan holda Odob-axloq kodeksining xodim, talaba va doktarantga nisbatan Odob-axloq kodeksining buzilishiga yo`l qo`ymaslik to`g`risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

Odob-axloq kodeksiga rioya etmagan xodim, talaba va doktorantni intizomiy javobgarlikka tortish bo`yicha buyruq loyihasi fakultet dekanlari va magistratura bo`limi (talabalarga nisbatan), kadrlar bo`limi (xodimlar va doktarantlarga nisbatan) tomonidan tayyorlanadi.

Xodim, talaba va doktorantlar o`zlari yo`l qo`ygan qoida buzilishi, qoida buzilishining ko`rib chiqilishi jarayoni haqida axborotni olish va o`zini himoya qilish uchun dalillarni taqdim etish, shuningdek, oliy ta`lim ta`lim muassasasi qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga egadirlar.

### **34-modda. Jamoatchilik nazorati**

Xodim, talaba va doktorantning xulq-atvori ustidan jamoatchilik nazoratini ta`minlash maqsadida, mazkur Kodeksga rioya etmaganlik holatlari Kasaba uyushmasi qo`mitasi, Xotin-qizlar masalalari bo`yicha maslahat kengashlari va O`zbekiston yoshlar ittifoqi boshlang`ich tashkilotida ham muhokama qilinishi amaliyoti joriy etilishi mumkin.

## **10-bob. Yakuniy qoida**

### **35-modda. Kodeksining kuchga kirishi hamda unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish.**

Mazkur kodeks Universitet kengashi tomonidan tasdiqlanganidan so‘ng kuchga kiradi va unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish Universitet Kengash qaroriga binoan amalga oshiriladi.

#### **Izoh:**

#### **“Ta`lim to‘g‘risida”gi Qonunning:**

**46-moddasida** ta`lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta`sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi pedagog xodimning majburiyatlaridan biri ekanligi;

**48-moddasida** ustav (ta`sis hujjati) talablariga, ichki tartib qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta`lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar talablariga rioya etish ta`lim oluvchilarining majburiyatlaridan biri ekanligi nazarda tutilgan.

#### **O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining:**

**22-moddasida** ichki mehnat tartibiga rioya etish xodimning majburiyatlaridan biri ekanligi;

**296-moddasida** mehnat shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlar va javobgarligi, shuningdek mehnat munosabatlarini tartibga solishga oid boshqa masalalar ichki mehnat tartibi qoidalarida belgilan ishi nazarda tutilgan.